

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.**
International online conference.

Date: 29th June-2025

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING BALZAK ASARLARIDAGI IFODASI



Asadova Dilnura

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa tanqidiy realizmi adabiyotining mashhur vakillaridan biri, buyuk fransuz yozuvchisi Onore de Balzak qalamiga mansub “Gorio ota”, “Gobsek” asarlaridagi insoniy qadriyatlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fransuz adabiyoti, Gorio ota, Gobsek, Volter, insoniylik, boylik,

Annotation: This article discusses human values in the works *Father Goriot* and *Gobseck*, written by one of the prominent representatives of European critical realism and the great French writer Honoré de Balzac.

Keywords: French literature, *Father Goriot*, *Gobseck*, Voltaire, humanity, wealth.

Аннотация: В данной статье рассматриваются человеческие ценности в произведениях «Отец Горио» и «Гобсек», принадлежащих перу великого французского писателя Оноре де Бальзака, одного из ярких представителей европейского критического реализма.

Ключевые слова: французская литература, «Отец Горио», «Гобсек», Вольтер, человечность, богатство.

Kirish. Buyuk fransuz adibi, dramaturg Onore de Balzak o‘z davrining eng buyuk adiblaridan biri hisoblanadi. Uning buyukligini shunda ediki, u jamiyatdagi muammolarni bor bo‘yi bilan realizm asosida qayta yozdi. Butun obrazlar tizimini yaratdi, u qahramonlar yordamida jamiyatga ko‘zgu tutdi. Bizlar qanchamiz Balzak bo‘lib ko‘rdik, hayotni o‘rganmoqchi, insoniy munosabatlar san’atini egallamoqchi bo‘ldik. Balzak ta’kidlaganidek, odamlar xulq atvorini anglab yetmoqchi bo‘lsak avvalo to‘rtta: kim, qachon, qayerda va nima uchun degan savollarga javob bermog‘imiz kerak bo‘ladi. Balzakning “Gorio ota” va “Gobsek” asarlari o‘z davrining eng mashhur asarlaridan bo‘lib, adib asarlarida beixtiyor o‘zining hayotini tasvirlaydi. Balzak boylikka hirs qo‘ygan odamlarning jirkanch qiyofasini ko‘rsatadi. Balzak ham “Gorio ota” asaridagi Ejen kabi asilzodalar davralarida faqatgina bir necha kiborlar xonodonlarigagina kira oladi, u bular orqali oliynasab, sohibjamol xonimlar, gersoginiya d’Arbante markiza de Kastrinalar singari fransuz zodagonlari nazariga tushishga umid qiladi. Ammo ular uni o‘yin qillardilar xolos. Bu asarlarda o‘zini o‘ylaydigan, boylik uchun hatto o‘z otasidanam voz kechadigan vijdonsiz insonlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, Balzakning bu asarlarida bir biridan farq qilmaydigan sudxo‘rlar va bankirlarni ko‘ramiz. Moliya olamini tasvirlar ekan, ular orasida Votren obrazi ajralib turadi. U surgundan qochgan avantyurachi. Votren jazo muddatini o‘tagan va vaqtinchalik ishdan uzoqlashgan jinoyatchilar birlashmalari mablag‘larini boshqaradi. Balzak bunday iblisona ishlar va firibgarlik uchun qahramonini surgun qilishga haqli edi, ammo so‘nggi bobda uni politsiya boshlig‘i etib tayinlaydi va bu

Date: 29th June-2025



yozuvchining bari qolgan asarlari ko‘lagasida mutlaqo haqiqatga xilof ko‘rinmaydi. Balzak yana bir mahorat bilan yaratgan sudxo‘r Gobsek obrazi edi. U sirli moliyaviy olamni boshqaradi. Gobsekning turli kishilarning kreditlari va qarzlari haqidagi ma’lumotlari yozib qo‘yadigan “Qora daftari” bo‘ladi. Gobsek “inson vijdonini sotib olishga qurbi yetadigan, idora mirzalaridan tortib to jazmanlar va ularning arzandalari orqali kuch qudratli vazirlarni ham boshqaradigan darajada boyman”- deb o‘yaydi. Balzakning butun umri nusenginlar va kellerlarga qarz to‘lab o‘tadi. Yozuvchi ularni ipidan ignasigacha o‘rganishi uchun imkonimiz ham, vaqtimiz mo‘l bo‘lgan...

Xulosa. Balzakning bu ikki asarida ham bosh mavzu boylikdir. Qahramonlar orasida bir biridan o‘zish, yuksalish muhim omil hisoblangan, bir birini o‘ylash, qadrlash hissi bo‘lmagan. Hattoki ota va farzand o‘rtasida ham. Umuman olganda, Balzak nafaqat fransuz adabiyotida balki, dunyo kitobxonlik sahifalarida ham o‘z nomini qoldira olgan mahoratlari adibdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.https://saviya_uz/ijod/adabiyotshunoslik/Buyuk_insonshunoslik.
- 2.[https://hozir.org/mavzu - Balzak asarlarida_umum_insoniy_qadriyatlar](https://hozir.org/mavzu-Balzak_asarlarida_umum_insoniy_qadriyatlar).
- 3.[https://Onore_de_Balzak „Gorio ota " asari](https://Onore_de_Balzak_Gorio_ota_asari).
- 4.[https://Onore_de_Balzak „ Gobsek "asari](https://Onore_de_Balzak_Gobsek_asari)